QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 6-son)

PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i06.017

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA FORMATIV BAHOLASHNING SAMARADORLIGI (10-11-SINF DARSLIKLARI MISOLIDA)

Amirkulova Dilnoza Zokir qizi
SamDCHTI mustaqil izlanuvchisi
Email:dilnozaamirkulova10@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida ingliz tili darslarida formativ baholash (shakllantiruvchi baholash) metodlarining o‘quvchilar lisoniy va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni va samaradorligi tadqiq etilgan. Eksperiment jarayonida respublikamizning uchta hududidagi maktablarning 10-11-sinf o‘quvchilari jalb etilib, amaldagi "Prepare" darsliklari asosida formativ baholash vositalari (portfolio, o‘z-o‘zini baholash rubriklari, raqamli texnologiyalar) sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari formativ baholash tizimli yo‘lga qo‘yilganda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi sezilarli darajada oshishini ko‘rsatdi. Tadqiqot doirasida olingan ma’lumotlar statistik tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar:formativ baholash, ta’lim sifati, ingliz tili, Prepare darsligi, portfolio, o‘z-o‘zini baholash, raqamli ta’lim texnologiyalari.

Аннотация. В данной статье исследуются роль и эффективность методов формативного (формирующего) оценивания в развитии языковых и речевых компетенций учащихся старших классов общеобразовательных школ на уроках английского языка. В ходе эксперимента были вовлечены учащиеся 10-11 классов школ трех регионов республики, где на основе действующих учебников "Prepare" были апробированы инструменты формативного оценивания (портфолио, рубрики самооценивания, цифровые технологии). Результаты исследования показали, что при системной организации формативного оценивания показатели успеваемости учащихся значительно повышаются. Данные, полученные в ходе исследования, были подвергнуты статистическому анализу, и разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: формативное оценивание, качество образования, английский язык, учебник Prepare, портфолио, самооценивание, цифровые образовательные технологии.

Abstract. This article examines the role and effectiveness of formative assessment methods in developing the linguistic and communicative competencies of upper-secondary school students in English classes. During the pedagogical experiment, 10th-11th grade students from schools in three regions of the republic were involved, and formative assessment tools (portfolios, self-assessment rubrics, digital technologies) were tested based on the current "Prepare" textbooks. The research results demonstrated that when formative assessment is implemented systematically, student achievement indicators increase significantly. The data obtained during the study were statistically analyzed, and practical recommendations were developed.

Keywords: formative assessment, quality of education, English language, Prepare textbook, portfolio, self-assessment, digital educational technologies.

KIRISH. Zamonaviy pedagogika va xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash tizimini tubdan isloh qilish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ko‘p yillar davomida ta’lim tizimida faqatgina summativ (yakuniy) baholashga urg‘u berib kelindi. Bunday yondashuv o‘quvchining faqat ma’lum bir bosqichdagi xotirasi va bilim darajasini filtrlasa-da, ta’lim jarayonining dinamik o‘sishini, o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari va kamchiliklarini real vaqt rejimida bartaraf etish imkonini bermaydi[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish va ta’lim sifatini oshirishga doir qarorlari talablari asosida Milliy o‘quv dasturlari yaratildi va ularda o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim (Student-Centered Learning) hamda baholash (Assessment for Learning) konsepsiyalariga alohida urg‘u berildi[2].

Formativ baholash — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi doimiy, tizimli va interaktiv qayta aloqa (feedback) jarayoni bo‘lib, u dars davomida yutuq hamda bo‘shliqlarni aniqlash, o‘quv maqsadlariga erishish yo‘llarini korreksiyalashga xizmat qiladi. Umumta’lim maktablarining yuqori (10-11) sinflarida ingliz tili fanini o‘qitish o‘ziga xos murakkablikka ega, chunki bu bosqichda o‘quvchilar B1 va B2 til bilish darajalariga chiqishlari, shuningdek, mustaqil hayotga yoki oliy ta’limga tayyorlanishlari lozim[3]. Amaldagi "Prepare" darsliklar majmuasi xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuv ustuvor hisoblanadi.

Biroq, respublikamiz pedagogik amaliyotida formativ baholash mezonlarini to‘g‘ri qo‘llash, darslik materiallarini ushbu baholash tizimi bilan uzviy integratsiya qilish darajasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ko‘p hollarda o‘qituvchilar formativ baholashni shunchaki har darsda an’anaviy jurnalga rag‘batlantiruvchi yoki jazolovchi raqamli baholar qo‘yish deb tushunishadi[4]. Ushbu muammoni bartaraf etish, formativ baholashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni empirik jihatdan tekshirish mazkur tadqiqotning zaruriyatini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi — umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-11-sinf ingliz tili darslarida "Prepare" darsligi misolida formativ baholash metodikasini tizimli ravishda ishlab chiqish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va rubrikalar yordamida uning o‘quvchilar lisoniy kompetensiyalariga ta’sirini eksperimental asoslashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida belgilangan vazifalarni hal etish va ilgari surilgan gipotezani tekshirish maqsadida kompleks pedagogik va statististik metodlardan foydalanildi. Pedagogik eksperiment 2024-2025 o‘quv yili davomida O‘zbekiston Respublikasining uchta yirik hududida — Qashqadaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlaridagi jami 6 ta davlat umumta’lim maktabida amalga oshirildi. Eksperiment jarayoniga jami 323 nafar 10 va 11-sinf o‘quvchilari, shuningdek, 12 nafar tajribali ingliz tili o‘qituvchilari jalb etildi.

Tadqiqotning obyektivligini ta’minlash uchun o‘quvchilar deyarli bir xil bilim darajasiga ega bo‘lgan ikki guruhga ajratildi:

1. Nazorat guruhi (160 nafar o‘quvchi) — ushbu guruhda darslar amaldagi reja bo‘yicha an’anaviy metodika hamda faqat summativ nazorat (choraklik testlar, nazorat ishlari) asosida tashkil qilindi.
2. Eksperimental guruh (163 nafar o‘quvchi) — bu guruhda ta’lim jarayoni "Prepare" darsligi mavzulariga maxsus integratsiya qilingan formativ baholash modullari asosida olib borildi.

Eksperimental guruhda qo‘llanilgan asosiy formativ baholash vositalari va ularning pedagogik mexanizmlari quyidagilardan iborat:

• Elektron portfoliolar (E-portfolio): O‘quvchilarning har bir bo‘lim (Unit) bo‘yicha bajargan yozma ishlari (esseler, xatlar), og‘zaki taqdimotlarining audio va video yozuvlari Google Drive va maxsus LMS platformasida to‘planib borildi. Bu o‘quvchining o‘z dinamikasini ko‘rishga imkon berdi.

• O‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash rubriklari (Self- and Peer-assessment rubrics): Speaking (gapirish) va Writing (yozish) ko‘nikmalarini baholash uchun aniq deskriptorlarga ega mezonlar kartasi (rubrikalar) ishlab chiqildi. O‘quvchilar dars oxirida sheriklarining ishlarini yoki o‘z chiqishlarini ushbu mezonlar asosida ball emas, balki tavsifiy baholadilar.

• Raqamli ta’lim texnologiyalari (Kahoot!, Padlet, Flip): Darsning interaktivligini oshirish va tezkor qayta aloqani ta’minlash uchun har bir dars oxirida 5 daqiqalik raqamli testlar (Exit tickets simulyatsiyasi) hamda Flip orqali video-assessmentlar o‘tkazildi.

Eksperiment boshlanishidan oldin (Pre-test) va yakunida (Post-test) o‘quvchilarning to‘rtta asosiy til ko‘nikmasi (Listening, Reading, Writing, Speaking) xalqaro CEFR (B1/B2) formatidagi diagnostik testlar yordamida tekshirildi va natijalar statistik tahlil (T-test) qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Olingan natijalar formativ baholash tizimining ingliz tilini o‘qitishda nihoyatda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Eksperiment boshida (Pre-test) nazorat va eksperimental guruhlarning o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari orasida jiddiy farq

aniqlanmagan edi (nazorat guruhi — 54.2 ball, eksperimental guruh — 53.8 ball, jami 100 balldan)[5].

Biroq, 6 oylik tizimli amaliyot va formativ metodlar joriy etilgandan so‘ng, yakuniy nazorat (Post-test) imtihonlarida keskin o‘zgarishlar kuzatildi. Nazorat va eksperimental guruhlarning ko‘nikmalar kesimidagi hamda umumiy dinamikasi quyidagi 1-jadvalda batafsil aks ettirilgan[6]:

Guruhlar	Pre-test (O‘rtacha ball)	Post-test (O‘rtacha ball)	Sof o‘sish ko‘rsatkichi	Sifat ko‘rsatkichi (%)
Nazorat guruhi (N=160)	54.2	58.5	+4.3	42.5%
Eksperimental guruh (N=163)	53.8	72.4	+18.6	68.7%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, an’anaviy shaklda dars o‘tilgan nazorat guruhida o‘sish ko‘rsatkichi atigi 4.3 ballni tashkil etgan bo‘lsa, tizimli ravishda formativ baholash, portfolio va raqamli qayta aloqa metodlari qo‘llanilgan eksperimental guruhda o‘rtacha ball 18.6 ballga oshdi va yakuniy natija 72.4 ballni tashkil etdi. Sifat ko‘rsatkichi esa 68.7% gacha yetdi[7].

Ayniqsa, o‘quvchilarning Writing (yozma nutq) komponenti bo‘yicha o‘sish ko‘rsatkichlari juda yuqori bo‘ldi. Har bir bo‘lim yakunidagi portfolio vazifalarida xatolar shunchaki qizil ruchka bilan chizib ball qo‘yilmasdan, balki "ikkinchi imkoniyat" prinsipi asosida qayta ishlatildi. Bu esa o‘quvchilarning o‘z xatolari ustida ishlash ko‘nikmasini keskin shakllantirdi[8].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan formativ baholash vositalari o‘quvchilarning faqat akademik bilimidagina emas, balki ularning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasida ham jiddiy o‘zgarishlar yasaydi[9]. An’anaviy darslarda o‘quvchi baholashni o‘ziga nisbatan tashqi jazo yoki mukofot vositasi deb bilsa, formativ yondashuvda baholash rivojlanish va qo‘llab-quvvatlash omiliga aylanadi. Bu holat xalqaro tadqiqotlarda, xususan, P. Blek va D. Uilyamning "Inside the Black Box" asarida keltirilgan ilmiy xulosalarga to‘liq mos keladi[10].

Eksperiment jarayonida "Prepare" darsliklarining tarkibiy tuzilishi tahlil qilinganda, darslikda kommunikativ topshiriqlar, loyiha ishlari (Project work) ko‘p bo‘lsa-da, ularni aynan qanday mezonlar (rubrikalar) asosida baholash kerakligi bo‘yicha o‘qituvchi kitobida (Teacher's Book) aniq ko‘rsatmalar berilmaganligi ma’lum bo‘ldi[11]. Biz tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan mezonlar (rubrikalar) darslikdagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qildi. Masalan, o‘quvchi taqdimot tayyorlayotganda uning ravonligi, so‘z boyligi va grammatik to‘g‘riligi uchun alohida-alohida deskriptorlar mavjudligi unga o‘z maqsadini aniq belgilashga yordam berdi[12].

Hududiy kesimdagi tahlillar (Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand) shuni ko‘rsatdiki, shahar va viloyat markazlaridagi maktablarda raqamli formativ baholash vositalarini (Kahoot!, Padlet) qo‘llash juda oson kechdi. Biroq, chekka qishloq maktablarida internet tezligi va texnik ta’minotning yetishmasligi muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqardi[13]. Bunday sharoitlarda biz muqobil ravishda an’anaviy qog‘ozli portfolio va o‘zaro baholash kartochkalaridan (Peer-assessment sheets) foydalandik. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, texnik jihozlanish past bo‘lsa-da, formativ baholashning metodologik asosi to‘g‘ri qo‘llanilsa, o‘quvchilarning o‘sish ko‘rsatkichi yuqoriligicha qolaveradi[14-15].

XULOSA

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-11-sinflarida ingliz tili darslarida formativ baholash tizimini amaliyotga tizimli joriy etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va 323 nafar o‘quvchi ishtirokidagi tajriba-sinov ishlari quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Formativ baholash dars samadorligini va o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini (ayniqsa, produktiv ko‘nikmalar bo‘lgan Speaking va Writing) an’anaviy summativ baholashga nisbatan kamida 3-4 barobar tezroq va sifatliroq o‘sishini ta’minlaydi.
2. Amaldagi "Prepare" darsliklar kompleksi o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim prinsiplariga mos keladi, biroq darslik tarkibida formativ baholash instrumentlari, har bir bo‘lim uchun o‘z-o‘zini baholash varoqlari va o‘qituvchilar uchun metodik rubrikalar rasman nashr etilishi yoki onlayn platformaga joylanishi zarur.
3. Umumta’lim maktablari ingliz tili o‘qituvchilarining formativ baholash metodikasini qo‘llash, tavsifiy qayta aloqa (descriptive feedback) berish va raqamli baholash platformalaridan foydalanish bo‘yicha malakalarini oshirish maqsadida maxsus seminar-treninglar va malaka oshirish kurslari dasturlarini yangilash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son Qarori, “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 19-may, 2021.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar bilimini baholash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi yo‘riqnomalari va metodik tavsiyalari. Toshkent, 2023.

[3] P. Black and D. Wiliam, “Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment,” Phi Delta Kappan, vol. 80, no. 2, pp. 139–148, 1998.

[4] M. Heritage, Formative Assessment: Making It Happen in the Classroom. Thousand Oaks, CA: Corwin Press, 2010.

[5] D. Wiliam, Embedded Formative Assessment. Bloomington, IN: Solution Tree Press, 2011.

[6] D. R. Sadler, “Formative assessment and the design of instructional systems,” Instructional Science, vol. 18, no. 2, pp. 119–144, 1989.

[7] J. Hattie and H. Timperley, “The Power of Feedback,” Review of Educational Research, vol. 77, no. 1, pp. 81–112, 2007.

[8] G. S. Aimuratova et al., Prepare for Uzbekistan. English for 10th Grade. Pupil’s Book. Toshkent: O‘qituvchi, 2022.

[9] G. S. Aimuratova et al., Prepare for Uzbekistan. English for 11th Grade. Pupil’s Book. Toshkent: O‘qituvchi, 2023.

[10] J. J. Jalolov, Chet til o‘qitish metodikasi (Foreign Language Teaching Methodology). Toshkent: O‘qituvchi, 2012

[11] R. A. Zaripova, Chet tillar o‘qitish metodikasidan qo‘llanma. Toshkent: O‘qituvchi, 1986.

[12] S. M. Brookhart, How to Give Effective Feedback to Your Students. Alexandria, VA: ASCD, 2013.

[13] S. Shahi, “The Role of Formative Assessment in EFL Classes,” Journal of Second Language Teaching and Research, vol. 7, no. 1, pp. 45–62, 2019.

[14] R. J. Stiggins, “Assessment Crisis: The Absence of Assessment for Learning,” Phi Delta Kappan, vol. 83, no. 10, pp. 758–765, 2002.

[15] C. Garrison and M. Ehringhaus, Formative and Summative Assessments in the Classroom. National Middle School Association, pp. 4–11, 2007.

[16] W. J. Popham, Transformative Assessment. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development (ASCD), 2008.